

SODIKOV Zokir Rustamovich,
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi
kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi
orcid 0000-0002-0195-4573
zokirsodikov1@gmail.com*

YASHIL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BOTANIKA VA AGRAR TURIZMNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

THE UNIQUE ASPECTS OF BOTANY AND AGRITOURISM UNDER GREEN TRANSFORMATION CONDITIONS

ОСОБЕННОСТИ БОТАНИКИ И АГРОТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Annotatsiya: Yashil transformatsiya jarayoni ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va turizm sohasida yangi, ekologik yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada botanika va agrar turizmning yashil transformatsiya sharoitida shakllanishi, ularning hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi, shuningdek, bioxilma-xillikni asrash va qishloq joylarda barqaror iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashdagi roli tahlil qilindi. Xususan, agrar turizm orqali mahalliy aholi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyati, botanika turizmi orqali esa ekologik ta'lim va barqaror iste'mol madaniyatini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Yashil transformatsiya, botanika turizmi, agrar turizm, ekoturizm, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, qishloq xo'jaligi, o'simliklar xilma-xilligi, mahalliy jamoalar, turizm infratuzilmasi.

Annotation: The green transformation process contributes to ensuring ecological sustainability, promoting rational use of natural resources, and fostering the development of new environmentally oriented sectors in tourism. This article examines the specific features of botanical and agritourism under the conditions of green transformation, analyzing their contributions to regional development, biodiversity conservation, and sustainable rural economic activities. Special attention is given to how agritourism can diversify income sources for local communities, while botanical tourism supports environmental education and the formation of sustainable consumption habits.

Keywords: Green transformation, botanical tourism, agritourism, ecotourism, natural resources, sustainable development, agriculture, plant diversity, local communities, tourism infrastructure.

Аннотация: Процесс зелёной трансформации способствует обеспечению экологической устойчивости, рациональному использованию природных ресурсов и развитию новых экологически ориентированных направлений в туризме. В данной статье рассматриваются особенности ботанического и аграрного туризма в условиях зелёной трансформации, их вклад в развитие регионов, сохранение биоразнообразия и поддержку устойчивой экономической деятельности в сельской местности. Особое внимание уделяется возможностям аграрного туризма в диверсификации источников дохода местного населения и роли ботанического туризма в экологическом просвещении и формировании культуры устойчивого потребления.

Ключевые слова: Зелёная трансформация, ботанический туризм, агротуризм, экотуризм, природные ресурсы, устойчивое развитие, сельское хозяйство, разнообразие растений, местные сообщества, туристическая инфраструктура.

KIRISH

Jahonda iqlim o'zgarishi kabi ekologik hodisalar atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiyaning barqarorligini ta'minlash borasidagi ongli yondashuvni oshirib, turizm sohasida yangi yo'nalish sifatida ekoturizmning ilgari surilishiga olib kelgan. Ekoturizm — turistlik hududlarning tabiiy holatini asrashga urg'u beradigan va sayyohlarning ekologik ongiga asoslanadigan turidir. Shu bois bu sayyohlardan mahalliy qoidalarga rioya qilishlari va atrof-muhitga zarar yetkazmasliklari uchun mas'uliyatli xatti-harakatlarni amalga oshirishlari kutiladi. Zero, ekoturizm, tabiiy turizmning bir shakli bo'lib, u ham muhofazaga, ham rivojlanishga hissa qo'shishi kutilgan faoliyat sifatida qabul qilinadi.

ASOSIY QISM

Ekoturizm — bu atrof-muhitni muhofazalashga, mahalliy aholi farovonligini oshirishga va sohaga oid ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladigan tabiiy hududlarga va muhitga nisbatan mas'uliyatli sayohat sifatida talqin qilinadi. Aynan bunda ta'lim jarayoni xodimlarni ham, turistlarni ham o'zida mujassam qilishi lozim. Ana shu jarayonlardan biri bu o'simliklar va qushlar dunyosini o'rganish

hisoblanadi. Bulardan, botanika turizmi – bu qushlarni kuzatish bo‘lib (ornitologiya), tabiatni suratga olish, yovvoyi tabiatni kuzatish, qishloq xo‘jaligi yoki fermer xo‘jaligi turizmi, geomorfologik shakllanishlarni (geoturizm yoki g‘or) kuzatish va o‘rganishga asoslangan kabi faoliyatlar ham ekoturizm faoliyati qatoriga kiradi. Etimologik jihatdan botanika so‘zi o‘zbek tiliga ingliz tilidagi “botany” so‘zidan o‘zlashgan bo‘lib, umuman o‘simlikshunoslik haqidagi fan sifatida talqin qilinishi mumkin. O‘simliklarni kuzatish deb ham ataladigan botanika turizmi ko‘plab o‘simlik turlarini o‘zida qamrab olgan va geografik jihatdan keng tarqalgan joylardagi turistik faoliyatlarni ifodalaydigan tushuncha hisoblanadi.

Zero, yirik shaharlarda botanika bog‘larining paydo bo‘lishi Renesans davriga borib taqaladi. Renesans davrining ta’sirlari sezilgan mamlakatlarda ta’lim va tadqiqot maqsadlarida botanika bog‘laridan foydalanilganligi ma’lum. Botanika turizmi - bu endemik o‘simlik turlarining masalaga oid hisoblagan tadqiqotchilar, tabiat masalalariga e’tiborli bo‘lgan shaxslar va botanikaning turli mavzulariga qiziqqan sarguzashtchilar tomonidan ular o‘sadigan muhitga zarar yetkazmasdan monitoring qilish, tahlil qilish va qayd etish uchun amalga oshirilgan faoliyatlarni qamrab olgan turizm shakli yoki turi hisoblanadi.

Botanika turizmi ma’lum bir joyda o‘sadigan, ayniqsa, endemik navlar va turlarni bilish hamda tadqiq qilish maqsadida amalga oshiriladigan turistik faoliyat bo‘lsa-da, bugungi kunda maxsus sabablar bilan shakllantirilgan botanika bog‘lariga tashrif buyurish orqali ham qo‘llash mumkin bo‘lgan ekoturizm faoliyati doirasiga kiritilmoqda. Botanika resurslarini muhofaza qilinishini, e’tirof etilish darajasini oshirilishini va barqaror foydalanilishini nazarda tutuvchi botanika turizmi barqaror turizm yondashuvi hisoblanadi. Bu turistik faoliyat tabiatga asoslangan va ekologik jihatdan sezgir bo‘lgani uchun yashil turizm yoki tabiat turizmi deb ataladi. Bundan tashqari, uni o‘simliklarga alohida qiziqishi bo‘lgan kishilar tomonidan afzal ko‘riladigan faoliyat sifatida alohida qiziqish turizmi doirasida ham tahlil qilinishi mumkin. Shu bois, botanika turizmi qiziqish va yuqori darajada tabiatni muhofaza qilish tushunchasiga ega bo‘lishni talab qiladi.

Botanika turizmining asosiy xususiyatlari – bu o‘simliklar bo‘yicha tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan ekspert gidlar hamrohligida, atrof-muhitga

e’tiborli ishtirokchilar va kichik guruhlar shaklida, belgilangan marshrutlar va mahalliy aholining ko‘magida, mahalliy aholiga manfaat keltiradigan tarzda amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Turistlar bog‘bonlik festivallari va tadbirlari bilan birgalikda bog‘ tajribasini taklif qiluvchi botanika bog‘larini, tarixiy bog‘larni va joylarni ziyorat qilishni, sohaga oid yengil ta’lim va dam olish kabi turli maqsadlarni ko‘zda tutib tashrif buyurishadi yoki sayohat qilishadilar. Bog‘ turizmi madaniy turizm deb ataladigan keng qamrovli sayohat segmentining ajralmas qismi hisoblanadi. Botanika bog‘lari mahalliy va xalqaro sayyohlarning keng jamoasini, mahalliy hududdan doimiy tashrif buyuruvchilarni jalb qiladi. Tabiatni muhofaza qilish ham, ta’lim ham botanika bog‘larining maqsadlaridan biri bo‘lganligi bois, jamiyatda tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha ta’lim berish, tabiatni muhofaza qilish tarafdori munosabatini ko‘rsatish va jamoatchilikni tabiatni muhofaza qilish borasida sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga undash imkoniyatini beradi. Shu bois, botanika turizmini afzal ko‘rgan turistik profil odatda quyidagilardan iborat:

- botanika turizmi asosan ayol sayyohlarning e’tiborini tortadi;
- yoshlar, do‘stlar yoki oila a’zolari bir guruh bo‘lib sayohat qilishadi;
- uni odatda 50 yoshdan oshgan insonlar afzal ko‘rishadi;
- buni turli sabablari mavjud, xususan, ba’zilar manzarali joyda yaxshi kun o‘tkazishni afzal ko‘radilar;
- Ular real tajribalarni izlaydilar.

Qushlarni kuzatish (ornitologiya) turizmi - bu qushlar olami orqali tabiat bilan tanishish imkonini beruvchi kuzatuv sporti hisoblanadi. Bu yovvoyi qushlarni tabiiy muhitda kuzatish va aniqlashga asoslangan, ba’zi tabiat ixlosmandlari tomonidan xobbi maqsadlarida va ayrim olimlar tomonidan ilmiy maqsadlarda amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Qushlarni kuzatish o‘tmishdan hozirgi kunga qadar ilmiy va sevimli mashg‘ulotlar uchun sport faoliyati sifatida saqlanib qolgan. Qushlarni kuzatish asosan kunduzi erta tongdan boshlab amalga oshiriladigan faoliyat ekanligi va qush kuzatuvchilarining tunashni kuzatish nuqtalari yaqinida o‘tkazish bo‘lgan istagi mahalliy aholining iqtisodiy jihatdan ko‘proq manfaat ko‘rinishini ta’minlovchi omil hisoblanadi.

Ekologik vaziyatdan boxabarlikni yaxshilanishi va qush kuzatuvchilarining yuqori darajadagi umidvorliklari rasmiy himoyalangan maqomga ega bo'lmagan ko'plab hududlarni himoya qilinishiga olib keladi. Chunki, qushlar qo'riqlanadigan hududning chegaralariga e'tibor bermaydilar va ko'plab turlar faqat rasmiy muhofaza qilinadigan hududlardan tashqarida kuzatilishi mumkin. Qushlar turizmi tabiatni muhofaza qilish uchun yaxshi boshlanish hisoblanadi. Chunki, qush turizmi qushlarga ko'proq ahamiyat berilishiga xizmat qilishi mumkin. Qushlarni kuzatuvchilar mahalliy turlarni, naslchilik turlarini, yozgi va qishki ko'chmanchi qushlarni, tasodifiy mehmonlarni va kuzatish hamda suratga olish maqsadida tashrif buyurilgan hududlarning noyob turlarini bilishni xohlashadi. Qushlarni kuzatuvchi turistlar ko'pincha kichik guruhlarda yoki yakka tartibda sayohat qilishadi. Ular odatda kuzatuv joylari yaqinidagi mahalliy turar joyni afzal ko'radilar, o'zlarining asosiy ehtiyojlarini mahalliy korxonalardan qondiradilar va mahalliy aholi tomonidan ishlab chiqarilgan hunarmandchilik mahsulotlarini sotib olish orqali mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shadilar.

Qushlarni kuzatish turizmi mahalliy aholining iqtisodiy va ekologik holatini yaxshilashga, mahalliy aholini biologik xilma-xilligiga oid qadr-qimmati to'g'risida bilim berishga, tabiiy hududlarni muvaffaqiyatli saqlashga va himoyalashga xizmat qiladigan mahalliy va milliy rag'batlarni yaratishda katta ahamiyat kasb etadi. Ana shu jihatlardan kelib chiqqan holda qushlarni kuzatishning samarasini va bezovtalikni minimal darajaga tushurish, shuningdek, bu jarayonda mahalliy ishtirokchilarni ko'paytirish borasida tavsiyalar mavjud bo'lib, ular jadvalda keltirilgan:

Jadval. Qushlarni kuzatish turizmining xususiyatlari¹

Qushlarni kuzatishning ijobiy samaralari	Qushlarni kuzatishning salbiy ta'sirlari	Qushlarni kuzatish bo'yicha muhim maslahatlar
Qushlar xilma-xilligi bilan mahalliy manfaat o'rtasidagi bog'liqlik	Qushlarga juda yaqin kelib ularni bezovta qilish	Axloqiy parrandachilikka sodiq bo'lish va rioya qilish
Yovvoyi tabiatni muhofaza qilishning iqtisodiy rag'batlantirish		Iloji boricha inlar va yosh qushlardan uzoq turish
Oddiy turizm bilan solishtirganda salbiy ta'siri kam, ijobiy yutuqlari ko'p	Noyob yoki yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni bezovta qilish	Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan va noyob turlarga e'tiborli bo'lish
Qushlarning noyob turlari ustidan mahalliy nazoratni kuchaytirish	Ba'zi hollarda inlarni haddan tashqari ta'qib qilish	Dalalarda lentadan foydalanish va ko'rinishni mini-mallashtirish
Muayyan turistik hududlardan tashqariga tashriflar		Qush sizni payqasa, yaqinlashmaslik
Kerakli turlar tufayli himoyalalmagan hududlarni himoya qilish	Tashriflar tufayli ifloslanish va yashash muhitini yo'q qilish	Belgilangan yo'llar va piyodalar yurish yo'llaklaridan yurish
Mahalliy tabiatshunoslik bilimlarini baholash	Daromadning katta qismi mahalliy aholida qolmaydi	Kuzatish va suratga olish uchun teleskopdan foydalanish
Mahalliy gidlarni tayyorlash va ularni band qilish		Qushlarni himoya qilish jamiyatlariga yordamlashish
Qushlar himoyasi uchun daromad olish	Mahalliy aholining noroziligi	Mahalliy va kam ta'sirli tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash
Ornitologiya faniga qo'shgan hissasi kabilar	Turizm bilan bog'liq madaniy tanazzullar kuzatilishi	Mahalliy aholiga qushlar va ularning iqtisodiy manfaatlari haqida ma'lumot berish

¹ Sohaga oid manbalar asosida tuzilgan

Qushlarni kuzatish paytida bir qator qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Ular borasida xususiyatlari va yo'nalishlari bo'yicha o'ziga xos talablar jadvalda keltirilgan. Xususan, ulardan eng muhimi qushlarni bezovta qilmaslik hisoblanadi. Qushlarning in qo'yish joylariga kirmaslik yoki tuxum yoki uyalar uchun materiallar qo'ymaslik zarur. Shuningdek, kuzatuvlar yakunida hududda hech qanday narsa va vositalar qolmasligi lozim.

Yovvoyi tabiatni kuzatish turizmining o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, so'nggi yillarda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ogohlik va biologik xilma-xillikka qiziqishning ortishi kishilarning tabiiy hududlarga bo'lgan faolligini oshirdi. Mehmonlar tabiiy muhitga qaratilgan kundalik yoki uzoq muddatli tadbirlarda tabiatda sayr qilish paytida turlarni yaqindan kuzatishlari mumkin. Yovvoyi tabiat zonalarini ko'plab o'simlik va hayvonlar turlarining vatani hisoblanadi. Bu hududlar biologik xilma-xillikning davom etishini ta'minlashdan tashqari, turli turistik faoliyatlarni tashkil etishga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, amalga oshirilgan tadbirlar tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ogohlikni oshirishga, shuningdek, ushbu sohalardagi shaxslarni tanib olish va tushunishga yordam beradi. Mintaqada topilgan endemik mavjudotlar ushbu mintaqaning jozibadorligini oshiradigan element bo'ladi. Bu endemik mavjudotlar mintaqaning jozibadorligini oshiradi. Chunki, ular noyob, o'sha mintaqaga xos bo'lib, o'sha iqlim xilma-xilligida o'sadi va ko'payadi. Dunyoda noyob o'simlik va hayvon turlari uchraydigan hududlarga tashrif buyurish orqali mintaqadagi turlarni yaqindan ko'rish faoliyati sifatida tanilgan yovvoyi tabiatni kuzatish turizmidagi tabiiy hududlarga oid qilingan sayohatlar vaqtida turistlar tomonidan qilinadigan kuzatuvlarni va monitoringlarni tabiiy yovvoyi havonot dunyosining hayot tarziga zarar yetkazmaydigan shaklda amalga oshirishlari umid qilinmoqda yoki kutilmoqda. Bunday faoliyatlarni ongli ravishda, qonun-qoidalar asosida amalga oshirish hayvonot olamining uzluksizligini saqlashda ham, mavjud yer-maydonlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi yoki fermer xo'jaligi turizmining o'ziga xos jihatlari mavjud hisoblanadi. Xususan, shahar hayotining salbiy ta'sirlaridan xalos bo'lish uchun fermaga borib, dam olishni, tabiiy hayotni yaqindan his qilishni,

tabiiy mahsulotlarni iste'mol qilishni va qishloq hayotini tajribadan o'tkazish istagi kishilarning faoliyati yoki xatti-harakati qishloq xo'jaligi yoki fermerlik turizmi vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Agroturizm - bu yillar davomida qo'llanilishi va nomenklaturasida rivojlangan hamda bir necha o'n yillar davomida turizm tadqiqotlarida tan olingan tushuncha hisoblanadi. Bu atama qishloq xo'jaligiga asoslangan diqqatga sazovor joylar va qulayliklarni tavsiflaydi va fermer turizmini ifodalaydi. Qishloq xo'jaligi turizmi so'nggi yillarda ayniqsa qishloq joylari uchun rivojlangan eng muhim turizm variantlaridan biri bo'lib bormoqda. Qishloq xo'jaligi turizmidagi shahar hayotining qizg'inligidan uzoqlashishni va qishloq hayotini boshdan kechirishni, mahalliy an'anaviy binolarda qolishni, qishloqda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishni xohlaydigan odamlar hayot tarzi va faoliyatlari aks etgan. Bu qishloq hayotini barcha elementlari bilan o'rtoqlashish va hayot tarzi bilan bo'lishish hisoblanadi. Qolaversa, qishloq hayotining bir qismiga aylangan kishi buning uchun qo'shimcha haq to'laydi. Shuning uchun bu harakatlar agroturizm sifatida talqin qilinadi. Qishloq xo'jaligi turizmi fermer xo'jaliklari yoki qishloqlarda dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan faoliyat, xususan, sabzavot, meva, gul va boshqalar kabi mahsulotlarni yig'ish, qayta ishlashdan oldingi tadqiqotlar, hayvonlarni oziqlantirish, chorvachilik mahsulotlarini olish hamda baholash va boshqa shu kabilardan tashkil topadi. Turistlar bu voqealarni tashqaridan tomosha qiladilar yoki ularda shaxsan faol qatnashadilar. Qishloq xo'jaligi turizmi qishloq xo'jaligi faoliyati jadal bo'lgan va resurslar barqaror ravishda foydalaniladigan hududlarda amalga oshiriladigan turizm turi sifatida ham inobatga olinishi kerak.

Jahon amaliyotida qishloq xo'jaligi turizmi hukumatlar tomonidan ham muntazam qo'llab-quvvatlanadigan turizm sohasi hisoblanadi. Chunki, uning atrof-muhitga va ekologik mahsulotlarga yetkazadigan zarari ommaviy turizmga qaraganda juda kam darajani tashkil etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi turizmi ekologiya va ijtimoiy muammolarga ham yangi yechimlar taklif qiladi va qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi turizmi nafaqat hududda yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa

qo'shadi, balki uning daromadining bir qismi tabiiy qadriyatlarni muhofaza qilishga va an'anaviy agrar madaniyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bois, tahliliy xulosalarga ko'ra, kelajakda jahon turizm harakatlari ichida insoniyatga eng ko'p manfaat keltiradigan turizm turi tabiiy muhitga zarar keltirmaydigan va uni himoya qilishga zamin yaratadigan ekoturizm modeli bo'ladi. Zero, qishloq xo'jaligi turizmi ushbu modelga kiritilgan turizm turlaridan biri bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda biologik xilma-xillikni va ekotizimni himoya qilishga katta hissa qo'shadi.

Milliy iqtisodiyotda agroturizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun talab qilinadigan mezonlar mavjud bo'lib, ular:

❖ Avtomobil yo'llari qurilgan bir necha kilometrgacha cho'zilgan qishloq xo'jaligi yerlarida organik dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish va chorvachilikni amalga oshirish imkoniyati mavjud emas.

❖ Og'ir sanoat obyektlari, reaktorlar, gidrotexnik va issiqlik elektr stansiyalari, tog'-kon sanoati korxonalari, shahar chiqindilari yig'ib-to'plab tashlanadigan hududlardan 3 kilometrgacha bo'lgan masofalarda qishloq xo'jaligi yerlarida organik dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish va chorvachilikni amalga oshirish imkoniyati cheklanganligi inobatga olinishi talab etiladi.

❖ Bu yerda ko'rsatilgan masalalardan tashqari holatlarda, atrof-muhitning ifloslanganligi borasida shubha bo'lgan hududlarda organik dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish va chorvachilikni amalga oshirish bo'yicha imkonitatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi xususida soha mutaxassislari yoki sertifikatlashtirish organi tomonidan ekspertiza xulosa berilishi kerak.

Ekoturizmning rivojlanishi tabiiy va madaniy muhitni tushunadigan, ekotizim yaxlitligini muhofaza qiladigan, shuningdek, mahalliy aholi uchun manfaatli bo'lgan tabiiy resurslarni saqlaydigan va iqtisodiy imkoniyatlarni ta'minlab beradigan tabiiy hududlarga tashkil etiladigan mazmunli sayohatning bir qismi sifatida fermer turizmining mashhur bo'lishiga olib kelgan. Fermer xo'jaligi turizmi ko'pincha qishloq joylarda yashaydiganlarning iqtisodiyotini rag'batlantirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish uchun barqaror rivojlanish varianti sifatida taklif qilingan bo'lib, u mislsiz darajadagi ichki imkoniyatlarning o'sishi hisobiga barpo qilingan.

XULOSA

Xulosa qilganda milliy iqtisodiyotda fermer yoki qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilishning turli shakllari orasida agroturizm asosan fermer xo'jaliklari va qishloq joylarini rivojlanish salohiyatiga ega soha sifatida yuzaga chiqmoqda. Xususan, agroturizm bandlikni rag'batlantirishi, qo'shimcha daromad keltirishi, qishloq joylarda yashaydigan jamoalarda uzluksiz, barqaror sifatli turmush tarzini ta'minlashga, shuningdek, yaxshi boshqariladigan tabiiy-madaniy manzara va landshaftlarni kuchaytirishga hissa qo'shadi. Shu bois milliy iqtisodiyotlarda muntazam ravishda yashil transformatsiya jarayonini davom ettirish va unda agrar hamda ekoturizmning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 // <https://www.lex.uz/docs/-4428097>
3. 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi // <https://lex.uz/docs/4143188>.
4. Gulyamova G.P. Turizmida institusional munosabatlar. O'quv qo'llanma. – T.: Complex print, 2019. – 240 b.
5. Isadjanov A.A. Xalqaro mehmonxonalar tizimi. Darslik. – T.: "Complex Print", 2021. – 224 b.
6. Norchaev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. – 152 b.
7. Tuxliev N., Gulyamova G.P., Valiev B.B. Turizmida menejmentning zamonaviy usullari. O'quv qo'llanma. – T.: "Lesson Press" MChJ, 2023. – 216 b.
8. Tuxliyev N., Jiyanov U. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. – T.: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2021. – 234 b.
9. Xaitboyev R. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 248 b.
10. Xudoyarov A. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. – T.: "Complex Print", 2021. – 376 b.
11. <https://www.unwto.org>.
12. <https://www.uzbektourism.uz>
13. <https://www.stat.uz>